



BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA OILANING O’RNI

Murotqobilova Mahliyo Anvar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat

universiteti filologiya fakulteti, o‘zbek tili

va adabiyoti kabinet mudiri

Annotatsiya: Ekologik muammolar global muammolarga aylanayotgan davrda har bir inson bunday muammolarni bartaraf etishga bel bog‘lasa maqsadga erishish uchun katta qadam quygan sanaladi. Bolalarga ekologik ta’lim berishni oiladan boshlash zarur chunki, xalqimiz aytganidek “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” deb bejizga aytishmagan. Bola ota-onaga qarab tarbiyalanadi, ta’lim oladi. Bolalarni ekologik ta’limini oilada, MTT bilan hamkorlikda orib borish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so‘zlar: “Oila yili”, “Ayollar yili”, oila va MTT hamkorligi, bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berish.

Аннотация: В то время, когда экологические проблемы становятся глобальными проблемами, если каждый решит устранить такие проблемы, это считается большим шагом на пути к достижению цели. Необходимо начинать экологическое воспитание детей в семье, ведь, как говорит наш народ, «Птица в своем гнезде делает то, что видит». Ребенок воспитывается и получает образование согласно своим родителям. Экологическое воспитание детей желательно проводить в семье совместно с МТТ.



Ключевые слова: «Год семьи», «Год женщины», сотрудничество семьи и МТТ, экологическое воспитание детей.

Abstract: At a time when environmental problems are becoming global problems, if everyone decides to eliminate such problems, it is considered a big step towards achieving the goal. It is necessary to start environmental education for children from the family, because, as our people say, “A bird does what it sees in its nest.” A child is raised and educated according to his parents. It is desirable to carry out environmental education of children in the family, in cooperation with MTT.

Key words: “Year of the Family”, “Year of Women”, cooperation between the family and MTT, environmental education for children.

Bola ta'lim - tarbiyasining tub ildizlari oiladan boshlanadi. Oila muqaddas dargohdir, o'shbu dargohda bolalarning aqlan yetuk, axloqan pok va jismonan baquvvat farzandlarni tarbiyalash umumdavlat ahamiyatiga molik masaladir. Ijtimoiy hayotimizda ro'y berayotgan barcha o'zgarishlar, ya'ni janjallar, ziddiyatlar, kamchiliklar va boshqalar oilada o'z aksini topadi. Shu sababli oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim muhim masala bo'lib keladi. 1988-yil “Oila yili” deb e'lon qilindi natijada oilaviy munosabatlarning huquqiy masalalari takomillashtirildi, “Oila kodeksi”ning yangi tahriri hamda bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Respublikamizda 1999-yil “Ayollar yili” deb e'lon qilinishi, yurtimizdagi xotin-qizlarning mavqeyini oshirishga xizmat qildi, bu esa oilada ilimli-ziyoli farzandlarning yetishib chiqishiga xizmat qildi.[1] Oilada bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish eng muhim vazifalardan biridir. Hozirgi zamonning global muammolaridan biri - ekologik muammolardir. Bolalarni oilada ekologik tarbiyani yo'lga quyish, ekologik xavfning kamayishiga olib keladi. Bolalarni



ekologik tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda olib borish samarali ta'lim shaklini vujudga keltiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikning turli shakllari bor:

1. Axborot (masalan, ekologik jurnallar, ota-onalar uchun eslatma va ma'lumot xatlari, ekologik xavfsizlik va sog'lom turmush tarzi bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot, ma'lumot savatchasi va b.)
2. Tashkiliy (ekologik ta'lim va tarbiya mavzulari bo'yicha ota-onalar yig'ilishlari, tarbiyachi va ota-ona bilan suhbatlari, so'rovnomalar, ota-onalarning jamoat ekologik tashkilotlari, konferensiyalar, brifinglar tashkil etish)
3. Tarbiyaviy (ota-onalarning avvalo o'zlari ibrat bo'lishi, tabiat qo'ynida sayrlarni tashkil qilish, eko-maktablarga tashrif buyurish)
4. Tashkiliy, faoliyat yuritishga asoslangan (bola – ota-ona hamkorligidagi loyihalar, bolalar va ota-onalarning birgalikda yaratgan ishlar ko'rgazmalari, bolalarning ijodiy faoliyati uchun tabiiy narsalarni yig'ishga yordam berish, MTT hududini obodonlashtirishga yordam berish, “Daraxt ek”, “Toza shahar” ekologik aksiyalarda qatnashish, MTTdagi bolalarning ekologik faoliyati haqida taqdimot va vedioroliklarni tayyorlashda yordam berish).[2]

Bolalar niholga o'xshaydi, niholga qancha ko'p e'tibor berib parvarishlasangiz u shuncha barq o'radi, bolalar ham shunday ularga qancha mehr, ta'lim-tarbiya bersangiz u shuncha qaddingizni ko'taradi.

Bolalarni tabiat bilan bog'lash uchun ularni ko'proq ochiq havoda olib yurish maqsadga muvofiqdir. Ularning tabiatdagi harakatlarini to'g'ri yo'lga quyish, vaziyatga qarab birgalikda harakatlanish, ijodiy ishlarini rag'batlantirish orqali ularning qiziqishi oshadi. Ota-onalar bolalarga ta'lim-tarbiya berishda avvalo o'zlari ularga o'rnak bo'lishi lozim. Jumladan, suvni tejab ishlatish, elektr toki va gazdan unumli foydalanish, chiqindilarni turiga qarab ajratish, gullarga suv quyish, kattalarga yordam berish, mehnat tarbiyasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova., SH.Q.Toshpo‘latova., N.M.Kayumova., M.N.A’zamova “Maktabgacha pedagogika” darslik. “Tafakkur nashriyoti”, Toshkent-2019-yil. 248-249-betlar.
2. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Rizayeva X.U., Kuryayeva I.V., Nekrasova Y.A., Shivaldova N.S., Xaziyeva L.Z. “Yer sayyorasi umumiy uyimiz” (Ekologik ta’lim-tarbiya uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun parsial dastur). Toshkent-2022. 41-bet.